



## **SHAXS RIVOJLANISHIDAGI DAVRIY INQIROZLAR TA'SIRIDA "MEN" KONSEPSIYASINING SHAKLLANISHI**

**N.Jabborov**

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti kursanti

### **ARTICLE INFO**

Qabul qilindi: 25-July 2023 yil  
Ma'qullandi: 28-July 2023 yil  
Nashr qilindi: 03-August 2023 yil

### **KEY WORDS**

*Shaxs, "Men" konsepsiyasi, inqiroz davri*

### **ABSTRACT**

*Inson dunyoga kelar ekan, ma'lum muhit ta'sirida, ijtimoiy-sotsial sharoit negizida shaxs degan maqomga ega bo'ladi. Shaxs o'zaro tashqi muhit bilan aloqador bo'lganligi sababli, ijtimoiylashuv amaliyotini boshidan kechiradi. Shu bilan birgalikda ushbu ijtimoiylashuv jarayonida shaxs psixikasidagi individuallik xususiyatlari (temperament, xarakter, qobiliyat) qaror topadi va rivojlanadi. Maqolada shaxs rivojlanishidagi davriy inqirozlari ta'sirida "Men" konsepsiyasining shakllanishi haqida so'z yuritiladi.*

Shaxsning ijtimoiylashuv holatida uning psixikasida yuz beradigan o'zgarishlar shaxsdagi xissiy-emotsional va o'zini-o'zi qaror toptirishga bo'lgan ehtiyojlar yuzaga kelishiga asos bo'ladi. Mana shu jarayonlar negizida shaxs o'zini optimallashtirish darajasiga erishadi.

Shaxsning individual fenomen sifatida rivojlanishida uning ontogeneza shakllanishi bir qator muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, shaxs individ sifatida dunyoga kelar ekan, nisbatan cheklangan xulq-atvor va chaqaloq faoliyatini muqarrar reflektor shakllar boshqarganligi sababli ruhiyatida sodir bo'layotgan hissiy-emotsional holatlarni yaqinlariga emotsiyalari orqali bildiradi va (yig'lash, kulish,) ma'lum ma'noda o'z ehtiyojlarini qondirishni boshidan kechiradi.

Shu nuqtai nazardan shaxsning o'zini-o'zi anglash sohasi bo'lgan – "Men" konsepsiyasining yuzaga kelishi asosan ilk bolalik davridan keyin maktabgacha yoshdagi pallasida ya'ni bola shaxsiyatining shakllanishi endigina rivojlanayotgan davrga to'g'ri keladi. Bu yosh davri 3 yoshlilar inqiroz davri hisoblanib, asosan bolada ma'lum darajadagi mustaqillikka ehtiyojning paydo bo'lishi sababli uning xatti-harakatlarida "Menlik", "Meniki", "Meniki emas" kabi jihatlar namoyon bo'la boshlaydi.

Maktabgacha yoshga qadar bolalarning psixologik xususiyatlari yuzasidan mulohaza yuritganda kimning ilmiy tadqiqoti va asari bo'lishidan qat'i nazar, unda vujudga keladigan xohish, istak hamda niyatning qondirilishi individni kamol toptirishga, shakllantirishga qaror qilgan kattalar tomonidan amalga oshiriladi va boshqariladi. Mana shu yosh davrida namoyon bo'ladigan tarbiya jarayonidagi ayrim qiyinchiliklarning tashqi va ichki alomatlari (belgilari) ham psixologik tadqiqotlarda va ilmiy psixologik adabiyotlarda ko'p marta ta'kidlangan bo'lib, birinchi navbatda o'jarlik, negativizm, qaysarlik, injiqlik kattalarning bolalar nazarida qadrsizlanishi kabi illatlar bilan bog'liqdir.

Bola xulqida muayyan sharoitning ta'siri bilan paydo bo'lgan o'jarlik va nojo'ya qiliqlar mavjudligi, uning psixikasida o'zgarish ro'y berganini, endi unga

uning hozirgi o'sish darajasini hisobga olib, munosabatni amalga oshirish zarurligini bildiradi.

Bolaning psixikasida vujudga keladigan inqirozlarning sabablari:

1) Kattalar bolaning jismoniy va aqliy imkoniyatini; 2) xohish va istagini mustaqil holda turmushda qaror toptirishga intilishini; 3) ayrim ko'zga tashlangan qiyinchiliklarni bartaraf qilishga urinishini; 4) o'z holicha ish tutishini cheklashlaridir.

Maktabgacha yoshidagi bolalik davrida bola psixikasida ijtimoiy xususiyatlarni idrok qilishning ilk shakllari ko'rina boshlaganligi hamda atrofdagilar bilan munosabat o'rnatishning oddiy ko'rinishlari rivojlanish tufayli boladagi yuqorida ta'kidlab o'tilgan inqiroz davrida "Men" hususiyatlarini tarkib topishi birmuncha murakkab kechadi. Bolaning psixikasida ota-ona tomonidan ko'rsatilgan cheklashlar natijasida boladagi erkin, mustaqil harakatlanish va ilk ijodiy qobiliyatlarini namoyish etishi "berkitib" qo'yiladi. Bu bolaning inqirozdagi "Men"ni rivojlanishini birmuncha ortga surishga sabab bo'ladigan asosiy omillardan biridir.

Shu bilan birgalikda bola bilan tizimli ish olib borilsa, uning xulqida o'ziga bo'lgan munosabatni ijobiy shakllantirish mumkin bo'ladi. Boladagi predmetli faoliyatdagi taasurolarning to'planishi, ya'ni bu yoshda avtodidaktik, o'zi o'rgatuvchi o'yinchoqlar (matryoshkalar, qutichalar, kubchalar, mozaikalar) bolani aqliy tez rivojlanishiga omil bo'lganligi uchun "Men" jihatlarining ma'lum darajada ortib borishiga asosiy sabab bo'luvchi yana bir jihat sifatida ta'kidlab o'tilgan.

Shuningdek, boladagi o'ziga bo'lgan munosabatni ijobiy ravnaq topishida rolli o'yinlarning ham katta ahamiyati bor. Binobarin rolli o'yinlar davomida bolada har xil xohish va istaklar tug'ila boradi, bular boshqa narsalarning tashqi alomatlari, o'ziga rom etishi sababli hamda bolaning ixtiyoridan tashqari, tengdoshlarining ta'siri ostida tug'iladi va o'z navbatida boladagi o'ziga bo'lgan adekvat baho shakllana boradi.

"Men" konsepsiyasining bosqichma-bosqich shakllana borishi va ravnaq topishida kichik maktab yoshidagi bola psixikasi ham ahamiyatli hisoblanadi. Bu davrda boladagi xulq-atvorning axloqiy normalari intensiv shakllana boshlaydi va bola psixikasida tashqi muhitdan informatsiya olish darajasi nisbatan ortadi hamda tashqi ta'sirlarga beriluvchanlik koeffitsienti yuqori ko'rsatkichda bo'ladi.

Ushbu yoshda bola tashqi ta'sirlarga javob reaksiyasini qaytarish uchun kuchni asosan ichki tizimdan ya'ni oila a'zolaridan izlaydi. Undagi taqlidchanlik belgisi ota yoki onaning harakatlarini qaytarish orqali namoyon bo'ladi. Bola hali shaxs darajasida fikrlay olmasa ham o'zidagi tafakkur orqali olamni idrok qilishga harakat qiladi.

Ko'pincha bu inqiroz davrida kichik maktab yoshidagi bolalarda kuzatiladigan muammolardan biri bolaning ota-onadan ruhan uzoqlashishi, oiladagi munosabatdan qoniqmaslik kabi holatlar hisoblanadi. Buning asosiy sababi sifatida ota-onalarning farzandlariga tizimli tarzda yondoshuvining yetishmasligi va shaxsiy namuna sifatlarining pastligini keltirish mumkin. Bolaning psixikasiga salbiy ta'sir qiladigan mazkur holatlar bolada tashqi muhit ta'siriga berilish foizini ortishiga olib keladi. Shuningdek bola psixikasida o'ziga ishonmaslik oqibatida aldash va yolg'on gapirish jihatlarini ko'rinadi. Boladagi o'z "Men"ligini namoyon etuvchi asosiy prinsipial jihatlardan biri bo'lgan bolaning shaxs sifatida ijro etadigan rollarida tushunmovchiliklar yuzaga kela boshlaydi.

Shu bilan birgalikda kichik maktab yoshida bola tashqi va ichki ta'sirlarga nihoyatda ta'sirchan bo'lganligi uchun ham o'z psixikasiga jamiyatning yetakchi jihatlarini singdiradi va

shu asosda undagi o'ziga bo'lgan baho shakllanib boradi. Olimlar, bu davrdagi bolalar psixikasiga jiddiy e'tibor qaratish lozimligi va asosan tashqi hayotiy shart-sharoitlar va tasodifiy omillar uning fikrlash doirasi qay darajada kengligini ifodalashi haqida ta'kidlab o'tishgan.

Bu davr o'zining ta'lim sohasiga bo'lgan adaptatsion davri bilan ham ahamiyatlidir. Bolada o'zini-o'zi anglash jarayonlarning kognitiv ketma-ketligi aynan ta'lim bilan uzluksiz bog'liq. Boladagi o'qishga bo'lgan ishtiyoq, motivatsiya uni oldinga undashga va yetakchilik (liderlik)ka intilishga sabab bo'layotgani kabi o'ziga shaxs sifatida baho berishi va xatti-harakatlariga munosabati ham shakllana boradi.

Bolaning shaxs sifatida ijtimoiylashuv belgilarini uning xulq-atvoridagi aktivlik va motivlar ierarxiyasi shakllana boshlaganidan ham ko'rishimiz mumkin.

Bu davrda boladagi yetakchi ta'sir vosita tashqi muhit va oila a'zolari hisoblanishadi. Bola o'zidagi shaxsiy konseptual belgilarni shakllantirishda yetakchi ma'lumotlarni asosiy referent sifatida o'qituvchidan oladi.

Yuqorida sanab o'tilgan barcha yetakchi jihatlar to'g'ri bajarilishi bolaning atrofdagilar bilan hech qanday cheklovlarisiz va mazmunli suhbat uyushtirishiga sharoit yaratibgina qolmasdan, o'ziga bo'lgan adekvat bahoning ijobiy va faollik bilan namoyon bo'lishiga ham zamin yaratadi. Kichik maktab yoshidagi bolalarning kognitiv va xulq-atvor sifatlarini rivojlantirish jarayonida yuksak samaraga erishish uchun ularning yosh individual xususiyatlarini hisobga olish bolaning o'z-o'zini bilish tizimini yanada faollashtiradi.

Shaxsdagi o'z-o'zini anglashi ijtimoiylashuv va tarbiya jarayonlari bilan uzviy bog'liqligini ta'kidlash muammosi shaxs rivojlanishining o'smirlik davriga to'g'ri keladi. Bu davrda o'smirning xatti-harakati va xulq-atvorida keskin o'zgarishlar ro'y beradi. O'zini asta-sekin katta odam deb his qila boshlaydi, lekin ko'p odat va xususiyatlari bolalarcha bo'lib qoladi. Bu hissiyot kattalik hissi deb ataladi va o'smirdagi asosiy psixologik yangilik hisoblanadi. Bu his o'smirda o'ziga, atrof-muhitga, odamlarga nisbatan yangi hissiy pozitsiyani yuzaga keltiradi. U bolalar xulq-atvorini kattalar xulqi va qadriyatlariga qayta orientatsiya qila boshlaydi.

Shu jarayonlar negizida shaxsda ijtimoiy obro' (status)ga bo'lgan va atrofdagilar tomonidan tan olinishga, hurmatga bo'lgan ehtiyojlar uyg'ona boshlaydi.

O'smirning shaxsiy bahosi sotsiumda asos topmagan vaziyatda, boshqalar unga doimiy past baho berganda, fundamental ehtiyojlardan biri bo'lmish hurmatga bo'lgan ehtiyoj doim to'sqinlikka uchrasa, shaxsiy diskomfort kuchi keskin kuchayadi. O'smir shaxs doimiy ravishda o'tkir diskomfort va distress holatida bo'la olmaydi, o'smir vujudga kelgan vaziyatdan chiqish yo'llarini qidiradi. Uning o'z-o'ziga bergan bahosi ijtimoiy makonda o'z tasdig'ini topishi kerak. Ushbu muammoni yechishning keng tarqalgan usullaridan biri o'smirning atrofdagilarning bahosi shaxsiy bahoga mos keladigan va xatto undan oshadigan guruhga o'tishdir. Ushbu guruhda o'smirlarni qadrlashadi, bu hurmatga bo'lgan hurmatning qondirilishiga, bundan kelib chiqqan holda, qoniqishga, ushbu guruh ichidagi komfort holatiga olib keladi. Shunday qilib o'smirning o'ziga bergan bahosi shaxsning tashqi ijtimoiy baholari makonida adekvat tayanchga ega bo'ladi.

Shaxsdagi emotsional qadriyatlar tizimi va axloqiy fe'l-atvorning kognitiv qismlari shakllana boradi. Shaxsning o'z-o'ziga, o'z imkoniyatlariga, boshqa odamlar orasidagi fazilatlariga baho berish protsessi kuchayadi.

O'smirlar haqida rus psixologi L.S.Vigotskiy shunday ta'rifni keltirib o'tadi: "O'smirlik yoshida o'z-o'zini anglash, uning o'zi haqidagi tasavvurlarining dinamik tizimi hisoblanib, o'zining jismoniy, intellektual va boshqa turli sifatlarni anglash bilan yuzaga keladi. Ushbu sifatlarga o'z-o'zining beradigan bahosida tashqi omillar, munosabatlar ham ta'sir etishi mumkin".

O'smir shaxsning bu davrda o'z-o'zini anglashi sifat jihatidan o'zgaradi. O'zi haqida o'ylash, o'zini boshqalar bilan taqqoslash o'smirning xususiyatidir. O'smir ko'pincha o'z kamchiligi ustida o'ylaydi, o'zidan qoniqmaslik hissi paydo bo'ladi. Ko'pchilik o'smirlar kattalarga o'xshaydigan o'z tengdoshlariga o'xshashga harakat qiladilar.

O'smirlik yoshidagi "Men" xususiyatlari shaxsning intiluvchanlik va harakatchanlik motivi bilan birgalikda har doim ma'lum maqsadlarga erishishga undaydi: bu maqsadlarga erishilganidan so'ng, shaxs o'zi intilgan hayotni ko'rishga muvassar bo'lishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan shaxs rivojlanishining asosiy aspektlari qatorida o'z-o'zini his qilish va o'z-o'ziga ta'sir o'tkazish o'zini anglashning emotsional tomoni sifatida o'smirlik davri alohida xarakterlanadi.

Mazkur davr haqida fikr yuritganda, o'spirinlik yoshida intensiv rivojlanuvchi mustahkam, individual tanlov asosidagi shaxslararo munosabatlarning yuzaga kelishi kuzatiladi.

O'spirinlik davriga xos bo'lgan talabchanlik asosida u "men o'zimni yomon ko'raman" deb gapirganda yoki o'ylaganda, bunday baho berishni o'spirinning "Men" siymosiga beradigan barqaror tasnifi sifatida tushunmaslik kerak. Ozgina vaqtdan keyin uning o'zi haqidagi tasavvurlari butunlay qarama-qarshi tomonga o'zgarib qolishi ham ko'p kuzatiladigan holatdir.

O'spirinlik yoshining psixologik xususiyati sifatida shaxsning o'z ichki dunyosini kashf etishi, o'zining kuchli va zaif tomonlarini anglashi hamda aqliy va jismoniy imkoniyatlarini qiyosiy olishi uning shaxsiy individuallik xususiyatlari qaror topganligidan dalolat beradi.

O'spirinlik yoshidagi davriy inqiroz sifatida kasb tanlash muammosini keltirishimiz mumkin. Ko'pincha o'spirin yoshdagi shaxslar o'z kasblarini ota-onalarining shaxsiy takliflari bo'yicha tanlaydilar va bu holat yillar o'tgan sari o'spirinlar o'rtasida o'z kasbidan qoniqmaslik hissini yuzaga keltirmoqda.

O'spirinlik yoshidagi shaxs ruhiyatida o'zidagi mavjud sifatlarni real baholash jarayoni qiyin kechadi. Chunki shaxsning psixikasida sodir bo'layotgan yoshga doir emotsional o'zgarishlar real va ob'ektiv baholashga to'sqinlik qiladi.

Umuman olganda, shaxsning o'zi haqidagi tasavvurlari kamdankam hollarda neytral, bahosiz xarakterga ega bo'lib, o'ziga emotsional-qadriyatli munosabat bilan bog'liq bo'ladi. Bu esa "Men" konsepsiyasining asosan affektiv, emotsional-qadriyatli tarkibiy qismlari shakllanishi va kognitiv soha rivojlanayotganligidan darak beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. M.Ch.Saidova " "Men" konsepsiyasini rivojlantirish" O'zMU – 2014
2. M.Xolnazarova "Yosh va pedagogik psixologiya fanidan ma'ruzalar matni" GulDU – 2015
3. N.Ismoilova. D.Abdullaeva "Ijtimoiy psixologiya" Toshkent – 2003